





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI  
TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA  
BOSHQARMASI



**TOSHKENT SHAHRIDA  
MAKTABGACHA TA'LIMNING  
ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI**  
*(2024- yil 1- yanvar holatiga)*



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI TOSHKENT  
SHAHAR STATISTIKA  
BOSHQARMASI

**TOSHKENT SHAHRIDA  
MAKTABGACHA TA'LIMNING  
ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI**  
*(2024-yil 1-yanvar holatiga)*



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI

**Maktabgacha talim bo'yicha press-reliz** – bu sohadagi rivojlanishlanish tendentsiyalarini kuzatib borish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ushbu press-relizda, birinchi navbatda, maktabgacha talim tizimining rivojlanishini tavsiflovchi va bu sohaga boshqacha nuqtai nazardan qarash imkonini beruvchi rasmiy statistik malumotlar keltirilgan.

**Press-relizning asosiy maqsadi** maktabgacha ta'lim sohasidagi hozirgi holatni aks ettirish, taqdim etilayotgan maktabgacha talim sifatiga, barqaror rivojlanishga erishish yo'lidagi natijalar sarhisobi, shuningdek, farzandlarimizning talim sifatini yaxshilashga qaratilgan samarali strategiyalarni ishlab chiqishga ko'maklashishdan Iborat.

**Maktabgacha talim** bola hayotidagi eng muhim bosqich bo'lib, u bolalarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, shaxsning shakllanishiga, uning intellektual, mahaviy- axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishiga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta talimga tayyorlashga ta'sir qiladi va ularning kelajagini belgilaydi. Garchi bu bolalar rivojlanishining turli sohalari bo'lsa-da, ular o'zaro bog'liqdir. Hozirgi vaqtda maktabgacha talim, ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylandi va uning ahamiyati doimiy ravishda ortib bormoqda.

Press-relizda maktabgacha talim tizimining turli jihatlarini tavsiflovchi davlat va nodavlat maktabgacha talim tashkilotlarining (oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qo'shgan holda) asosiy ko'rsatkichlari, xususan, maktabgacha talim tashkilotlari va ulardagi bolalar soni, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan pedagoglar va tarbiyachilar soni, 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichlari kabi malumotlar keltirilgan.


**Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti** faqat davlat-xususiy sheriklikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnik va metodik jihatdan ta'minlash shakli asosida tashkil etiladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti shaklida maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim xizmatlari yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladi.

Ushbu press-reliz O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining maktabgacha ta'lim tashkilotlari bo'yicha idoraviy ma'lumotlari integratsiyasi orqali olingan ma'lumotlar asosida tayyorlandi.

## Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan maktabgacha talim tashkilotlari soni


(tegishli yilning 1-yanvar holatiga, birlik)



Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari, oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini qo'shgan holda, 2024-yil 1-yanvar holatiga 1025 tani tashkil etdi, bu esa 2020-yil 1-yanvarga nisbatan 393 taga (ya'ni 2,6 barobarga) oshgan.

## Faoliyat yuritayotgan maktabgacha talim tashkilotlari sonining tumanlar kesimida taqsimlanishi

(2024-yil 1-yanvar holatiga, birlik)




Agar 2024-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan maktabgacha talim tashkilotlarining eng katta qismi Yunusobod (124 ta), Mirzo-Ulug'bek (114 ta) va Uchtepa, Shayxontoxur (107 tadan) tumanlarida kuzatilgan bo'lsa, boshqa tumanlarga nisbatan eng past ko'rsatkich Bektemir (34 ta), Mirobod (53 ta) va Yakkasaroy (66 ta) tumanlarida qayd etilgan.



## Toshkent shahri maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar soni \*

(tegishli yilning 1-yanvar holatiga, ming birlik)




Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar soni ushbu sohadagi eng muhim ko'rsatkichlardan biri deb hisoblanib, barcha kichik yoshdagi bolalarga bolalar bog'chalariga borish va maktabga tayyorgarlik ko'rish imkoniyatini davlat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ta'minlanishini aks ettiradi.

\* 2024-yil 1-yanvargacha oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar soni to'g'risidagi ma'lumotlarsiz keltirilgan.

## Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar sonining tumanlar kesimida taqsimlanishi


(2024-yil 1-yanvar holatiga, ming birlik)



2024-yil 1-yanvar holatiga maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar sonining eng kata qismi Uchtepa (26,6 ta), Mirzo-Ulug'bek (24,6 ta) va Yunusobod (23,5 ta) tumanlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, boshqa tumanlarga nisbatan eng past ko'rsatkich Bektemir (4,8 ta) hamda Mirobod (10,2 ta) tumanlarida kuzatilgan.

## Toshkent shahri maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi guruhlar soni \*

(tegishli yilning 1-yanvar holatiga, birlik)




Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi guruhlar bolalarni tarbiyalash va o'qitish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ushbu guruhlar bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi, bu esa ularning har tomonlama rivojlanishi uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

\* 2024-yil 1-yanvargacha oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi guruhlar soni to'g'risidagi ma'lumotlarsiz keltirilgan.

## Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi guruhlar sonining tumanlar kesimida taqsimlanishi


(2024-yil 1-yanvar holatiga, birlik)



2024-yil 1-yanvar holatiga tumanlar kesimida eng ko'p maktabgacha ta'lim tashkilotlari guruhleri Uchtepa (838 ta), Yunusobod (833 ta) va Mirzo-Ulug'bek (789 ta) tumanlarida qayd etilgan, boshqa tumanlar bilan solishtirganda, eng past ko'rsatkichlar Bektemir (162 ta) hamda Mirobod (341 ta) tumanlarida kuzatilgan.

## Toshkent shahridagi oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni


(tegishli yilning 1-yanvar holatiga, birlik)



Toshkent shahrida oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 2024-yil 1-yanvar holatiga 98 tani tashkil etdi, bu esa 2020-yil 1-yanvarga nisbatan 91 taga (ya'ni 14 barobarga) oshgan.

## Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonining hududlar kesimida taqsimlanishi

(2024-yil 1-yanvar holatiga, birlik)



Agar 2024-yil 1-yanvar holatiga oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining eng katta qismi Yashnobod (25 ta), Bektemir (18 ta) va Sergeli (17 ta) tumanlarida qayd etilgan bo'lsa, boshqa tumanlarga nisbatan eng past ko'rsatkich Olmazor, Mirobod hamda Chilonzor (1 tadan) tumanlariga to'g'ri kelgan.

## Toshkent shahri maktabgacha talim tashkilotlaridagi bolalar soni


(tegishli yilning 1-yanvar holatiga, ming kishi)



Toshkent shahri maktabgacha talim tashkilotlaridagi bolalar soni 2024-yil 1-yanvar holatiga 153,2 ming nafarni tashkil etdi, bu esa 2020-yil 1-yanvarga nisbatan 126,5 ming kishiga (ya'ni 17,5 % ga) oshgan.


## Maktabgacha talim tashkilotlaridagi bolalar sonining tumanlar kesimida taqsimlanishi

(2024-yil 1-yanvar holatiga, ming kishi)






## Toshkent shahri maktabgacha talim tashkilotlaridagi bolalarning gender taqsimoti (tegishli yilning 1-yanvar holatiga, %)




2024-yil 1-yanvar holatiga maktabgacha talim tashkilotlaridagi bolalar sonida o'g'il bolalarning ulushi 63,4 % ni, qizlarning ulushi esa 36,6 % ni tashkil etgan. 2020-yil 1-yanvar holati bilan solishtirganda qizlarning soni 31,8 % ga kamaygan, o'g'il bolalarning soni 18,5 % ga oshgan.

## Maktabgacha talim tashkilotlaridagi bolalar sonining tumanlar bo'yicha gender taqsimoti (2024-yil 1-yanvar holatiga, %)



## Toshkent shahrida 3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha talim bilan qamrab olinishi


(tegishli yilning 1-yanvar holatiga, % da)



3-6 yoshli bolalarni maktabgacha talim bilan qamrab olinishi bo'yicha sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Jumladan, 2020-yil 1-yanvar holatiga bolalarning 66,4% i maktabgacha talim olish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lsa, 2024-yil 1-yanvar holatiga esa bu ko'rsatkich 73,0% gacha yetdi. Ushbu ijobiy tendensiyani bolalarni erta bolalik davrida har tomonlama rivojlanishi uchun talim strategiyalari va dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirilishi natijasi sifatida baholash mumkin.

## 3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha talim bilan qamrovining tumanlar kesimida taqsimlanishi


(2024-yil 1-yanvar holatiga, % da)



Agar 2024-yil 1-yanvar holatiga 3-6 yoshdagi bolalarning eng ko'p qismi Yakkasaroy (107,5%), Sergeli (91,9%) va Mirzo-Ulug'bek (89,6%) tumanlarida maktabgacha talim bilan qamrab olingan bo'lsa, boshqa tumanlarga nisbatan eng past qamrov Shayxontoxur (50,9%) hamda Olmazor (53,5%) tumanlarida kuzatilgan.

## Toshkent shahrida 3-6 yoshdagi bolalarni jinsi bo'yicha maktabgacha talim bilan qamrab olinishi


(tegishli yilning 1-yanvar holatiga, % da)



2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 3-6 yoshdagi o'g'il bolalarning maktabgacha talim bilan qamrovi 89,4 % ni, qizlarning qamrovi esa 55,4 % ni tashkil etdi. 2020-yil 1-yanvar holati bilan solishtirganda, qizlarning qamrovi 41,1%.ga kamaygan, o'g'il bolalarning qamrovi 16,4 % ga oshdi.

## 3-6 yoshdagi bolalarni jinsi bo'yicha maktabgacha talim bilan qamrab olinishining hududlar kesimida taqsimlanishi

(2024-yil 1-yanvar holatiga, % da)



## Toshkent shahri maktabgacha talim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar soni

(tegishli yilning 1-yanvar holatiga, ming kishi)




Maktabgacha talim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar soni maktabgacha talim sifatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Bolalar bog'chalari malakali mutaxassislar bilan ta'minlanishi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish darajasiga, shuningdek, talim dasturlarini samarali amalga oshirishga bevosita ta'sir qiladi

\* 2024-yil 1-yanvargacha oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar soni to'g'risidagi ma'lumotlarsiz keltirilgan.

## Maktabgacha talim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar sonining tumanlar kesimida taqsimlanishi

(2024-yil 1-yanvar holatiga, ming kishi)



Agar 2024-yil 1-yanvar holatiga maktabgacha talim tashkilotlaridagi pedagog xodimlarining eng ko'p qismi Mirzo-Ulug'bek (1,7 ming kishi), Uchtepa, Yunusobod va Olmazor (1,4 ming kishidan) tumanlarida qayd etilgan bo'lsa, boshqa tumanlarga nisbatan eng past ko'rsatkich Bektemir (0,3 ming kishi) hamda Mirobod (0,7 ming kishi) viloyatlariga to'g'ri kelgan.

## Statistik ko'rsatkichlarga izoh

**Maktabgacha ta'lim va tarbiya** — bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi.

**Maktabgacha ta'lim tashkiloti** — maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi davlat va nodavlat tashkiloti.

**Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti** — davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartiga muvofiq maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilot.

**Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti** — nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziya asosida maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

**Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti** faqat davlat-xususiy sheriklikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnik va metodik jihatdan ta'minlash shakli asosida tashkil etiladi. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 50 nafargacha bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya berilishiga yo'l qo'yiladi.

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni** – yil oxirida maktabgacha ta'lim tashkilotlari ro'yxatida turgan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar soni.

**Maktabgacha bo'lgan yosh** — bolalarning tug'ilgan paytidan yetti yoshgacha, to ularga umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ta'lim berish boshlangan paytga qadar bo'lgan yoshi.

**Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida joylar bilan ta'minlanganligi** — ushbu ko'rsatkich bolalar sonining maktabgacha ta'lim muassasalaridagi joylar soniga nisbati bilan aniqlanadi. Qiyosiy tahlilda bu yerda maktabgacha ta'lim tuzilmalaridagi har 100 ta joyga to'g'ri keladigan bolalar soni bo'yicha ma'lumotlar qo'llaniladi.

**3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha talim bilan qamrab olinishi** – ushbu ko'rsatkich maktabgacha ta'lim tashkilotlari ro'yxatida turgan 3-6 yoshdagi bolalar sonining mazkur yoshdagi aholi soniga (doimiy aholining joriy hisobi asosida olingan demografik statistik ma'lumotlarga ko'ra) nisbati bilan aniqlanadi.





**Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:**

**Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**



**Toshkent shahar  
statistika boshqarmasi**



**e-mail: ijtimoiy\_soha  
@toshstat.uz**



**Manzil: 100000, Toshkent  
sh., A.Temur ko'chasi, 11**



**www.toshstat.uz**



**Tel.: +99871 203-88-27**



**facebook.com/ Toshkent  
shahar statistika boshqarmasi**

